


## QASHQADARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar-avgust)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6055,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 188,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 36,9%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1305,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,5%), yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar bo'yicha savdo tovar aylanmasi 4562,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,0 %) tashkil etdi.

### Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi, ulushi (%)




**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning ko'pchilik tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (108,3 %), Koson (106,9 %), G'uzor (106,5 %), Chiroqchi (105,3 %) va Nishon (103,0 %) tumanlarida qayd etildi. Chakana savdo aylanmasi quyidagi tumanlarda kamayish kuzatildi. Qarshi tumani (97,2 %), Qamashi tumani (97,6 %), Shahrisabz sh (99,5 %) va Qarshi shahri (96,5 %) da.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`ngan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 37,6 % ni va 188,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,1 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 5867,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 106,8 % ga etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,9 % ga teng.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0 %), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %) va Dehqonobod (99,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumanida (21,3 %), Qarshi shahrida (8,0 %) va Muborak (2,5 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar (mlrd. so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>188,0</b>	<b>37,6</b>	<b>5867,8</b>	<b>106,8</b>
<b>G`uzor</b>	2,5	119,8	236,0	106,4
<b>Dehqonobod</b>	0,5	7,1	306,4	104,6
<b>Qamashi</b>	0,6	7,4	417,3	99,2
<b>Qarshi</b>	1,1	82,7	243,1	97,3
<b>Koson</b>	0,2	3,0	582,9	108,4
<b>Kitob</b>	0,0	0,2	397,6	104,1
<b>Mirishkor</b>	0,3	5,5	275,2	104,3
<b>Muborak</b>	4,6	96,0	181,2	108,6
<b>Nishon</b>	0,7	92,5	236,8	103,0
<b>Kasbi</b>	1,0	16,0	260,2	104,9
<b>Chiroqchi</b>	1,5	105,1	506,8	105,3
<b>Shahrisabz</b>	46,3	196,6	171,0	90,8
<b>Yakkabog`</b>	7,1	4,6 m.	317,5	99,4
<b>Qarshi sh</b>	120,0	29,1	1387,6	120,7
<b>Shahrisabz sh</b>	1,6	17,0	348,2	101,8

**Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1876,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 99,0 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (5545,7 ming so`m), Shahrisabz shahri (2542,3 ming so`m) va Mirishkor (2348,5 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Shahrisabz (993,1 ming so`m), Qarshi (1005,0 ming so`m) va G`uzor (1569,7 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1876,8</b>	<b>99,0</b>
G`uzor	1192,0	104,6
Dehqonobod	2124,9	100,3
Qamashi	1569,7	95,5
Qarshi	1005,0	95,1
Koson	2085,8	104,6
Kitob	1529,2	100,1
Mirishkor	2348,5	100,2
Muborak	2180,0	106,0
Nishon	1589,7	100,6
Kasbi	1355,8	100,8
Chiroqchi	1264,7	102,7
Shahrisabz	993,1	100,9
Yakkabog`	1254,4	99,0
Qarshi sh	5545,7	95,2
Shahrisabz sh	2542,3	97,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 133,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4 % o`shiga erishildi.


## QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1737,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 93,3 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oyi yakunlariga ko'ra, 1055,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 60,8 % ni tashkil qilmoqda.

### Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



 **Yirik korxonadlar**  
 **Kichik korxonalar**




Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	1737,2	93,3	681,8	80,8	1055,4	103,8
<b>G`uzor</b>	7,7	55,4	0,2	-	7,5	1,6
<b>Dehqonobod</b>	3,1	26,8		-	3,1	5,2
<b>Qamashi</b>	33,4	2,2 m.	16,6	66,2	16,8	123,3
<b>Qarshi</b>	80,7	86,9	19,0	-	61,7	5,4 m.
<b>Koson</b>	62,9	95,1	-	0,6	62,9	4,2 m.
<b>Kitob</b>	63,1	125,3	-	1,7	63,1	68,0
<b>Mirishkor</b>	55,4	4,3 m.	36,9		18,6	28,1
<b>Muborak</b>	47,2	157,5	37,4	250 m.	9,8	19,6
<b>Nishon</b>	93,7	148,8	33,5		60,3	4,6 m.
<b>Kasbi</b>	52,3	4,5 m.	35,8	2 m.	16,5	128,8
<b>Chiroqchi</b>	32,4	42,6	0,0	174,5	32,4	51,4
<b>Shaxrisabz</b>	14,0	52,1	0,2	2 m.	13,8	121,4
<b>Yakkabog`</b>	29,4	77,5	0,2	3,7 m.	29,2	38,4
<b>Qarshi sh</b>	1084,6	84,1	501,1	116 m.	583, 5	22 m.
<b>Shaxrisabz sh</b>	77,2	123,6	1,0	9 m.	76,2	2 m.

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o`shish sur`atlari Kasbi (4,6 m.) va Mirishkor (4,3 m.), Qamashi (2,2 m.), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`atlari esa Dehqonobod (26,8 %) va Chiroqchi (42,2 %), Shahrisabz 52,1 %) tumanlarida qayd etildi.